



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

¹Shakarov Axror Amonqulovich

²Eshmurodova Dilrabo Xo'doyberdi qizi

¹Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi
E-mail: axrorshakarov86@gmail.com, Tel: +998 97 289 89 86

²Siyob abu ali ibn sino nomidagi salomatlik texnikumi o'qituvchisi
E-mail: eshmuradovadilrabo@gmail.com, Tel: +998 33-844-88-30

PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT-METODIK QO'LLAB-QUVVATLASHNI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI

Annotatsiya: Ta'limdagi yangiliklar va ularning pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda turli xil shakllarining o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: axborot-metodik qo'llab-quvvatlash, ta'lim shakllar, kouching, trening, moderatsiya, maslahat, fasilitatsiya, tyutorlik.

FORMS OF IMPLEMENTATION OF INFORMATIONAL AND METHODOLOGICAL SUPPORT IN CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF TEACHERS

Abstract: It is about innovations in education and their role in continuous professional development of pedagogues.

Key words: information-methodical support, educational forms, coaching, training, moderation, consultation, facilitation, tutoring.

ФОРМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ ПЕДАГОГИ

Аннотация: Речь идет об инновациях в образовании и их роли в непрерывном профессиональном развитии педагогов.

Ключевые слова: информационно-методическое обеспечение, формы обучения, коучинг, обучение, модерация, консультирование, фасилитация, репетиторство.

Ma'lumotlar oqimi hozirgi kunda shunchalik tezlashdiki bir yangilikni eshitib amaliyotga tadbiiq etish yakunlanmagunicha keyingi undanda qiziqarli axborotlarga duch kelmoqdamiz. Albatta, huddi shu tezkorlikni asosiy nuqtasini ta'limdagi o'zgarishlar, unga berilayotgan e'tibor, ixtirolarni keltirishimiz mumkin. Shunday ekan biz pedagoglar bu o'zgarishlarga labbay deb qarshi olishimiz va o'zimizni barcha bilim va ko'nikmalarimizni rivojlantirib borishimiz dolzarb hisoblanadi.


Ta'lim jarayonlarini axborot qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish asnosida o'qitishning bevosita aloqaga yoki hududga bog'liq bo'lmagan yangi shakllarini hosil qilishga shart-sharoit yaratiladi. Bu esa ta'lim oluvchilarda XXI asr uchun muhim hisoblangan ko'nikmalar: mustaqil ta'lim olish, samarali muloqotga kirishish, axborotlarni topish, saralash, qayta ishlash, ijodiy yondashish, to'g'ri uzatish, jamoada ishlash, tanqidiy tafakkur, muammolarni tushunish va hal qilishni rivojlantirishga xizmat qiladi [2].

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo'llab-quvvatlashni boshqa turdagi metodik xizmatlar kabi kouching, trening, moderatsiya, superviziya, maslahat, fasilitatsiya, tyutorlik shakllarida amalga oshirish samarali bo'lishi pedagogik amaliyotda o'z tasdig'ini topib bormoqda (1-rasm).

Kouching – tinglovchilarning salohiyatini ro'yobga chiqarish va natijalarga erishishda hamkorlik qilishni ifodalovchi individual o'qish jarayonini ifodalaydi. Jahonda bu texnologiya tashkilot va xodimning faoliyat davomida erishgan natijalarning o'zaro bog'liqlikdagi majmuasi sifatida qarash ustuvorlikka ega. Shunday innovatsiyalardan biri bo'lgan Individual me'yorlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi (Personal Balanced Scorecard - PBSC) [3; 69-b.] kouchingning samarali metodi va qo'llab-quvvatlash texnologiyasi sifatida qaralmoqda.

Treningda axborot almashinuvi orqali o'zaro ta'sir paradigmasidan kelib chiqadigan, raqobatga emas, balki birdamlikka asoslangan hamkorlik, kasbiy va shaxsiy o'sish motivlari ustun bo'ladi. Kasbiy treninglar blok-modulli tamoyillar ostida bosqichma-bosqich olib boriladi va tarkibiga tashkiliy-metodik ishlar, axborot-tahlil, bashorat qilish, tashxislash, maslahat berish usullarini o'zlashtirishning faol

rivojlantiruvchi metodlaridan umumli foydalangan o‘qitish tizimini qamrab oladi [4; 34-b.].



1-rasm. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish shakllari

Pedagogik maslahat ta’limning turli subyektlariga o‘qitish jarayoni bilan bog‘liq konsultativ yordam ko‘rsatish, shuningdek, maktab va uning jamoasi faoliyatida ilmiy-metodik kuzatuvni tashkil qilishni nazarda tutadi [4; 35-b.].

Moderatsiya pedagoglarning ichki salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltiriladigan faoliyatdir. Moderatsiya negizida erkin muloqot muhitini tashkil qilish, o‘zaro fikr almashish, xodimning ichki salohiyati evaziga kerakli yechimlarga olib keluvchi mulohazalar yuritishga ko‘maklashuvchi maxsus texnologiyalardan foydalaniladi [4; 35-b.].

Superviziya pedagoglarning ish jarayonida doimiy hamkorlikda bo‘lgan, ularning kasbiy harakatlari va xulqlarini tushunadigan, tahlil qiladigan, anglay oladigan tajribali, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan hamkasblaridan tizimli ravishda muntazam maslahatlar olib turishlariga asoslanadi. Shu bilan birga, supervizorlik ko‘maklashuvchi va kuzatuvchi texnika sifatida pedagogning kasbiy faoliyatini o‘zlashtirish hamda kasbiy takomillashish yo‘nalishini loyihalashtirish jarayonida shakllanadigan tajribasiga ham tayanadi [1; 36-b.].

Tyutorlikka tinglovchining o‘qish faoliyatini individuallashtirish, individual ta’lim yo‘nalishini belgilash va uni amalga oshirishga ko‘maklashish, bu jarayonda o‘qitishga doir hamda ijtimoiy sharoitlar yaratish sifatida qaraladi [1; 36-b.].

Fasilitatsiya malaka oshirish tizimida pedagog faoliyatining hamkasbi faoliyatiga rag‘batlantiruvchi ta‘sirini ifodalaydi. Uning asosida tinglovchilar shaxsiga hurmat hamda ta‘lim mazmunini mustaqil tanlash huquqi va erkinligi yotadi. Bu jarayon xodimning hayotiy va kasbiy tajribasiga murojaat, o‘zaro tajriba almashishga sharoit yaratish, pedagogik mahoratini rag‘batlantirishni nazarda tutadi [1; 36-b.].

Demak, axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida yaxlitlikni bildiradi hamda ijtimoiy buyurtma asosida davlat va jamiyatning pedagog xodimlar mahorat darajasiga qo‘yadigan talablari, shaxsiy-kasbiy ehtiyojlarini ta‘minlash, missiyalarini anglash, individual xususiyatlariga tayanish, pedagogik faoliyatini olib borishga qulay sharoitlar yaratishni ifodalaydi. Shuningdek, muammoli pedagogik vaziyatlarda pedagoglarning kasbiy mahorati va shaxsiy tajribalari asosida eng to‘g‘ri qarorlarga mustaqil ravishda kelish, kognitiv imkoniyatlarini rivojlantirish, ijobiy o‘zaro ta‘sir muhitini yaratish, pirovard natijada malaka oshirish ta‘limi samaradorligiga erishishni ta‘minlaydi.

Xulosa qilish mumkinki, uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashning obyekt sifatida pedagog xodimlar qaraladigan bo‘lsa, predmeti bo‘lib ularning muayyan pedagogik vaziyatlar va shaxsiy-kasbiy muammolarini anglashi hamda mustaqil ravishda ularni hal etishi, faolligi tushuniladi. Ya‘ni bu jarayonda o‘qituvchi faqatgina kasbiy rivojlantirish obyekt emas, balki subyekti (muammoga munosabati, mustaqil qarorga kelishi va hal qilishi, harakatlari, irodasi va b.) sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimov A.A. Xalq ta‘limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari: Monografiya. – Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2019. – 180 b.

2. Amankulovich, X. S., & Xo‘doyberdi qizi, E. D. . (2024). UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHDA PEDAGOGLAR ONLAYN TA‘LIM PLATFORMALARINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH. *FAN, TA‘LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 5(1), 145-149. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1335>

3. Рамперсард Х. Индивидуальная сбалансированная система показателей. – М.: ЗАО Олимп-Бизнес, 2005. – 226 с.

4. Научно-методическое сопровождение персонала школы: педагогическое консультирование и супервизия / Под редакцией М.Н.Певзнера, О.М.Зайченко. – Великий Новгород: НовГУ им. Ярослава Мудрого; Институт образовательного маркетинга и кадровых ресурсов, 2002.– 316 с.